

MUSIQIY TA'LIMDA UZVIYLIK BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA MUHIM VOSITADIR

Mamarasulzoda Z

JDPI musiqiy ta'lim
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya : Maqola barkamol avlod tarbiyasida musiqa va musiqiy ta'limning roli, musiqiy ta'limda uzviylik, umumta'lim maktablarida bu uzviylikning buzilganligi va paydo bo'lgan qator muammolar hamda ularning yechimi to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, pedagog-murabbiy, interaktiv, interfaol.

Barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi hozirgi davrda ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xar bir pedagog-murabbiy oldida turgan muxim vazifa xisoblanadi. Shunday ekan ko'zlangan bunday maqsadga muvaffaqiyatli ravishta erishish va uning kelajakda beradigan samarasi ta'lim-tarbiya ishiga daxldor bo'lgan xar birimizning faolligimiz, fidoiyligimiz va izlanuvchanligimizga nihoyatda bog'liqdir. Ayniqsa ta'lim sohasida yaratilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, ilg'or ish tajribalar, shuningdek, Ziyonet, InterNET kabi axborot tarmoqlari, interaktiv va interfaol ish uslublari ta'lim sohasidagi pedagoglar ishini bir qadar yengillashtirmoqda hamda ma'lum darajada samara bermoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimiga kiruvchi barcha o'quv dargohlarida u yerda ta'lim oluvchi avlodning yoshiga, kasbiy yo'nalishlariga hamda hayotiy zaruriyatlariga ko'ra turli aniq gumanitar va amaliy fanlar o'qitiladi. O'rta maxsus va oliy ta'limda esa bu fanlardan tashqari o'quvchi va ta'labalar tanlagan mutaxassisliklariga ko'ra iqtisodlik fanlari ham o'qitiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlari ta'lablariga asosan ta'lim

tizimi sohasida o'qitiladigan barcha fanlar ta'lim oluvchilarning yoshi ulg'aya borishiga ko'ra oddiydan murakkabga tomon tamoyili asosida uzluksiz o'qitilishi ta'kidlangan. Bu esa barcha fanlar qatori musiqiy fanlarni o'qitishga ham daxldordir. Chunki, barkamol avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadigan estetik tarbiya sirasiga kiruvchi musiqiy tarbiya yosh avlodning ma'naviy kamol topishida, ularning jaholatga qarshi kurashuvchanligini o'stirishda, ularda vatanparvarlikni, insonparvarlik, samimiyat kabi yuksak insoniy tuyg'ularning shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Musiqqa har bir davrning ma'naviy-mafkuraviy hayotida muhim va ta'sirchan vosita bo'lib qolgan. Musiqiy asarlar, ular qaysi janrda yoki ko'rinishda bo'lmasin faqatgina xalqning ma'naviy ehtiyojlarinigina qondirib qolmay, balki kishilarning mavjud ijtimoiy tuzimga, jamiyatga, hayotning ijobiy va salbiy xodisalariga bo'lgan haqqoniy munosabatlarini bildirgan. Ma'naviy barkamol insonni shakllantirishdagi musiqaning ahamiyati haqida gap ketganda shuni alohida ta'kidlash joizki, musiqiy asarlar insonda go'zallik, ulug'vorlik, ko'tarinkilik, yoki tushkunlik, mayuslik, faxr va g'urur kabi tuyg'ularni uyg'otuvchi xususiyatga ega. Xuddi mana shunday jihatlari orqali inson ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa yoshlar istedodini ro'yobga chiqarish, ularning ahloqan poklanishi, hayot sharoitlariga moslashishi va ijtimoiy faollashuviga yordam beradi. Qisqacha qilib aytganda musiqqa bilan dil bog'lagan kishining ichki va tashqi go'zalligi, muomala madaniyati va hatti harakatlarida ijobiy sifatlar yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobilyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar yetib voyaga yetkazish ta'lim-ta'rbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak."

Ushbu maqolamizda yosh avlod ma'naviyatini to'la shakllantirish uchun ta'limning uzliksizligiga erishish lozimligi va bu uzliksizlik yuqorida ko'rsatib o'tgan qonunlarimiz hamda fanlarga qo'yilgan DTS talablari bilan mustaxkamlanganligini ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan, barchi fanlarni ta'lim tizimi quyi bo'g'inlaridan to yuqori bug'ini bo'lgan oliy ta'limga qadar uzluksiz o'qitish maqsadida maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilgan.

Muammo shundaki, umumta'lim maktablari o'quv rejasi va o'quv dasturida ayrim fanlar o'qitilishi ma'lum muddatga to'xtatib qo'yilgan. Bunday fanlar sirasiga musiqiy fanlarni o'qitish ham kiradiki, u umumta'lim maktablarining 7-sinfiga qadar o'qitilib so'ngra to'xtatib qo'yilgan.

Bunday nomutanosiblik o'zidan keyin qator muammolarni paydo qilmoqdaki, bunga mufassal to'xtatish lozim. Paydo bo'layotgan yangi muammolar asosan quyidagilardan iborat:

1. Umumta'lim maktablari yuqori sinflari (asosan 5 sinfdan boshlab) o'quvchilari oldida kelajakda kim bo'lsam ekan, degan savol tug'iladi va ular o'zlariga kasb tanlay boshlaydilar. Ularning kasb tanlashlarida ota-onalar bergan maslaxatlar, atrof muhitda ko'rgan va eshitganlari, ustozlar yo'riqlari va o'zlarining qiziqishlari muhim o'rin egallaydi. Maktablarda o'tkazilgan turli musiqiy tadbirlar, radio va televideniya, to'y-hasham va boshqa dargoxlardagi musiqiy chiqishlar ularning ma'lum qismini kelgusida yetuk musiqachi, qo'shiqchi, aktyor, rassom yoki so'z ustasi bo'lishga undaydi. Buning uchun ushbu sohalar bo'yicha keng bilim va malakaga ega bo'lish talab etiladi.

Aytaylik, o'quvchi maktabgacha ta'lim muassasida, so'ngra boshlang'ich sinflarda to 7 sinfga qadar musiqiy saboq oldi va musiqaning dastlabki pog'anasini egalladi. U umumta'lim maktabining 8-9 sinflarida o'zi qiziqqan musiqa sohasi bilan shug'illanmasa 2 yil davomida bu sohada olgan bilim va malakalari tamoman yodidan chiqib ketadi. Kelgusida u o'rta maxsus o'quv yurtiga shu soha bo'yicha kirib o'qish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

O'rta maxsus o'quv yurtiga kirgan taqdirda ham u musiqiy ta'limni boshdan boshlashiga to'g'ri keladi. O'rta maxsus o'quv yurtlari (musiqa va san'at kollejlari, maxsus san'at litseylari, pedagogika kollejlarining musiqiy ta'lim yo'nalishi) o'quv dasturlari esa murakkab bo'lib o'quvchining musiqiy ta'limni boshdan boshlayotganligi nazarda tutilmagan. Bu esa o'quvchining o'quv dasturini o'zlashtirishida qiyinchiliklar tug'dirmoqdaki, oqibatda uning noqonuniy hatti – harakatlar qilishiga kelishuvchilik va boshqa negativ holatlarga yo'l qo'yishiga sabab bo'ladi.

2. Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar toifalarga ajralmoqda, ya'ni 1-darajali fanlar (matematika, ona tili va adabiyot, ximiya, biologiya, tarix, geografiya ...) va 2-darajali fanlar (mexnat, tasviriy san'at, musiqa ...). Mana shunday holat o'qituvchilar o'rtasida ham ijtimoiy tengsizliklar paydo bo'lishiga, ya'ni 2 – darajali fan o'qituvchilariga boshqacha nazar bilan qaralishiga sabab bo'lmoqda.

3. Umumta'lim maktablari o'quv rejasida fanlarni o'qitish uchun ajratilgan dars soatlari o'rtasidagi nomutanosiblik ham qator muammolarni keltirib chiqarmoqda, ya'ni ayrim fanlarni o'qitish uchun xaftasiga 5 – 6 soat ajratilgan holda ba'zi fanlarni o'qitish uchun xaftasiga 1 – 2 soat vaqt ajratilishi yuqorida aytib o'tilgan fanlarning va ulardan saboq beruvchi ustoz – murabbiylarning ham toifalarga ajralib qolishlariga sabab bo'lmoqda.

4. Kadrlar qo'nimsizligi ikkinchi toifa fan o'qituvchilari o'rtasida ko'p uchramoqda. Bunga sabab dars soatining kamligi, ya'ni bir maktabda bir o'qituvchi uchun yetarli bo'lgan dars soati (1 stavka) bo'lmasligi, natijada ular 2 - 3 joyda ishlashga majbur ekanligi. Bunday muammolarni sanayversak ya'na ko'plab topiladi. Xo'sh bu muammolarni yechish, masalani odilona hal ekan uchun nima qilmoq kerak? Ma'lumki o'qitiladigan har bir fanning ijtimoiy taraqqiyotida va barkamol avlod tarbiyasida o'z o'rni bor. Shunday ekan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligidagi ma'sul lavozimdagi

kishilar bu masalaga chuqurroq yondashishi, fanlarni o‘qitish uchun ajratiladigan dars soatlarini mo‘tadillashirishlari lozim. Bu masalada albattda jahonning yetakchi rivojlangan mamlakatlari ish tajribalari hamda ulardagi ta‘lim tizimi me‘yorlariga nazar tashlashlari lozim bo‘ladi.

Biz ushbu maqolada umumta‘lim maktablarida o‘qitiladigan musiqa fanlarini o‘qitishda uchrayotgan ayrim muammolar to‘g‘risida fikr yuritdik. Bu muammolarni quyi bo‘g‘inlarda hal etib bo‘lmaydi. Bunga faqat yuqori maorif tashkilotlari rahbarlari hamda mutasaddi kishilargina qodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. –T.: Ma‘naviyat, 2008. -176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T., O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Umumta‘lim maktablarida musiqa ta‘limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. –T.: -XTB, 1995 y.
4. Umumiy o‘rtata‘limning Davlat Ta‘lim Standarti va o‘quvdasturi. T.: Ta‘lim taraqqiyoti, 6-7 maxsus sonlari, 1999 y.
5. Abdukarimova E.I. Qudratov I. Musiqa ta‘limida fanlararo aloqadorlik. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand.: SamDU, -2015. – B 95 b.
6. Abdukarimova E.I. Qudratov I. Milliy musiqiy an‘analar va ularning shaxs komolotidagi o‘rni// O‘zbekiston: Turizm; Iqtisodiyot va Ekologiya // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Sam., 2009-B 376-378
7. Abdukarimova E.I. Preparation of future music teachers for their professional activities through uzbek classical music// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences. Research learning.- Volume: 7 Number: 6 Issue: 2056-5852 Publication Year: 2019. www. Scopus.com
8. Abdukarimova E.I. Texnologik loyihalash- musiqa mashg‘ulotlarida samarali ta‘lim // “Ilim ham jamiet” jurnal. -Nukus davlat pedagogika instituti, 2019, 1-son, -B 61-63.
9. Abdukarimova E.I. Oliy Pedagogik ta‘limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta‘limi. jurnal-T.: 2021. -№3, - B. 82-84.
10. <https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view/3541/2454>

11. <https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view/288>
12. <https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view/1660>